

GERBITSIDLARNI ARALASHTIRILIB QO‘LLANILISHI

Sulliyeva Suluv Xurramovna -Termiz davlat universiteti Botanika kafedrası
dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekin yetishtirish jarayonida agrotexnologik tadbirlarning optimallashtirilgan usullari, xususan gerbitsidlar va mineral o‘g‘itlarni aralashtirib qo‘llash orqali begona o‘tlar bilan kurashish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Ilmiy manbalar asosida kimyoviy vositalarni uyg‘un holda qo‘llash ekin hosildorligini oshirish, mehnat va moddiy resurslarni tejash imkonini berishi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: Gerbitsidlar, mineral o‘g‘itlar, begona o‘tlar, agrotexnologiya, samaradorlik, aralashtirib qo‘llash, ekin hosildorligi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются оптимизированные агротехнологические мероприятия при выращивании сельскохозяйственных культур, особенно эффективность совместного применения гербицидов и минеральных удобрений для борьбы с сорняками. На основе научных источников доказана эффективность интегрированного применения химических средств, что способствует повышению урожайности и снижению затрат.

Ключевые слова: Гербициды, минеральные удобрения, сорные растения, агротехнология, эффективность, совместное применение, урожайность.

Associate Professor of the Department of Botany, Termez State University.

Sulliyeva Suluv Xurramovna – Associate Professor of the Department of Botany,
Termiz State University

Annotation: This article discusses optimized agro-technological approaches in crop cultivation, with a particular focus on the effectiveness of combining herbicides and mineral fertilizers to control weeds. Based on scientific studies, integrated use

of chemical agents has been proven to increase crop yield and reduce labor and input costs.

Keywords: Herbicides, mineral fertilizers, weeds, agrotechnology, efficiency, combined application, crop yield.

Ekinlar ekilganidan pishib yetilishigacha o'ttizdan ortiqroq agrotexnologik jarayonni o'tkazilishini talab etadi. Chunki, ekinlarni ekishdan to pishib yetilishigacha ishlov berish, sug'orish, kasalliklar, hashoratlar, begona o'tlardan himoyalash va boshqa tadbirlarsiz rejalashtirilgan hosilga erishib bo'lmaydi.

Biroq, ekinzorlarda barcha agrotexnologik jarayonlar alohida-alohida o'tkazilsa, yerga og'ir texnikalarning qayta-qayta kirishi oqibatida tuproqning zichlashib, mexanik tarkibi buzilishi, yoppasiga ekiladigan ekinlarning poymol bo'lishi bilan birga sarf-xarajatlar oshib ketishi oqibatida foydadan ko'ra zarar ko'payib ketadi.

Shu sababli ham keyingi yillarda dehqonchilikda ekinlarni yetishtirish uchun qo'llaniladigan agrotexnologik jarayonlar sonini maksimal darajada kamaytirish masalasi dolzarb masalalar qatoriga qo'shilmoqda. Ana shunday jarayonlardan biri ekinlarni yetishtirishda qo'llaniladigan kimyolashtirish jarayonlari sonini ham kamaytirish masalasi turibdi.

Agrar soha olimlari mineral o'g'itlar, gerbitsidlar, retardantlar va boshqa kimyolashtirish vositalarini aralashtirib qo'llash bo'yicha talaygina ilmiy va amaliy yechimlarga erishgan. V.A.Zaxarenko [3.26], I.Synak [1.1.a.28] V.D.Semenov, V.A.Goncharov [3.71], I.Petr [3.100], I.P.Kazanova, YE.I.Kozina [3.36], V.P.Vitsenko, V.T.Kolyushnikov [3.17] T.N.Bashkirova, E.F.Neygebaur, L.N.Samaylov, V.M.Chmulev, A.V.Vyalova [3.11] lar gerbitsidlarni mineral o'g'itlar bilan aralashtirib qo'llab, ushbu usulning samarasi yuqori bo'lishini aniqlagan bo'lsa, E.Linke, K.Horn [3.97] N.N.Yampolskaya [3.95] lar gerbitsidlarni boshqa turdagi kimyolashtirish vositalari bilan aralashtirib qo'llanilganda yuqori samaradorlikka erishganlar.

A.A.Babich, V.P.Borona [3.6], A.S.Andreyev, V.S.Tereshuk [3.4] lar gerbitsidlarni bir-birlari bilan aralashtirib qo'llanilganda samaradorligi yuqori bo'lishini aniqlashganlar.

Odatda, ekinzorlarda yuqorida qayd etilganidek, begona o'tlarning turli guruhlari va turlari bir vaqtning o'zida rivojlanadi. Lekin, gerbitsidlarning tanlab ta'sir etish xususiyati bir xildagi gerbitsidlar vositasida faqat bitta guruhga mansub bo'lgan begona o'tlarni o'ldirib, boshqa turdagi begona o'tlar yanada erkinroq rivojlanib, zarar keltirish darajasi yanada oshadi. Masalan, ishimizning asosiy obykti hisoblangan ikki pallali va boshqoli begona o'tlarni bir vaqtning o'zida bir marta gerbitsid sepish bilan bartaraf etish zaruriyati tug'ilmoqda. Shu sababli ham tajribalarimizning asosiy mazmunini va ijobiy natijasini tashkil etuvchi ikki pallali begona o'tlarga qarshi Granstar gerbitsidi, boshqoli begona o'tlarga qarshi Puma super gerbitsidini aralashtirib, bir marta qo'llash yo'li bilan bartaraf etilishi ishimizning asosiy ilmiy yechimini tashkil etdi. Agar gerbitsidlarni mineral o'g'itlar bilan aralashtirib qo'llanilishining samaradorligini tahlil etsak, quyidagi holatlarning guvohi bo'lamiz.

V.A.Zaxarenko [3.26] tomonidan tuzilgan tavsiyanomada begona o'tlarga qarshi kurashish bilan bir vaqtning o'zida ekinlarni oziqlantirishini ham amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Ushbu tavsiyanoma bo'yicha mineral o'g'itlar va gerbitsidlar birgalikda eritib, aralashtirilib sepilganda ekinlarni oziqlantirishi va begona o'tlariga qarshi kurashish bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi va samaradorligi yuqori bo'lishi tajribalarining natijalariga asoslangan.

I.Synak [1.1.a.28] tajribalarida mineral o'g'itlar, gerbitsidlar, retardantlar va fungitsidlar aralashtirilib qo'llanilganida ekinlarning barglarining qo'ydirmasligi aniqlangan bo'lsa, V.D.Semenov, V.A.Goncharovlar [3.71] tajribalarida mineral o'g'itlar bilan Simazin gerbitsidi kuzgi bug'doyga birgalikda qo'llanilganida samaradorligi yuqori bo'lishligi bilan birga qo'shimcha mehnat va xarajatlar keskin kamayganligi kuzatilgan. Xuddi shuningdek I.Petr [3.100] ning ilmiy ishlarida

mineral o'g'itlar, pestitsidlar va retardantlarni donli ekinlarga aralash holda maxsus idishlarda eritib sepilganida foydasi har tomonlama yuqori bo'lishligini aniqlagan.

I.P.Kazanova, YE.I.Kozina [3.36] tajribalarida makkajo'xori dalalaridagi begona o'tlarga qarshi kurashish oziqlantirish bilan birga amalga oshirilganda, ya'ni, mineral o'g'itlar gerbitsidlar bilan birga qo'llanilib, samaradorligini yuqori bo'lishi aniqlangan.

V.P.Vitsenko, V.T.Kolyushnikov [3.17] lar makkajo'xorini ekishdan oldin Atrazin gerbitsidini JKU o'g'iti bilan aralashtirilib eritib qo'llanilganida samaradorligi keskin oshganligini aniqlagan.

T.N.Bashkirova, E.F.Neygebaur, L.N.Samoylov, V.M.Chmulev, A.V.Vyalova [3.11] lar suyuq azotli o'g'itlar va retardantlarni maxsus baklarda aralashtirib eritib qo'llaganlarida iqtisodiy samaradorlik yuqori bo'lishi bilan birga atrof-muhitga zarari deyarli kuzatilmagan.

E.Linke, K.Horn [3.97] lar gerbitsidlar boshqa kimyolashtirish vositalari bilan aralashtirilib qo'llanilganda ekinlarning barglarini kuyib qolishiga barham beriladi.

N.N.Yampolskaya [3.95] kuzgi javdarga Tur va Kompozon gerbitsidini aralashtirib sepib, don hosildorligini 1,8 s/ga oshirish bilan birga protein va shakar miqdorini kamaymasligini aniqlagan.

A.A.Babich, V.P.Borona [3.6], A.S.Andreyev, V.S.Tereshuk [3.4] ishlarida bir nechta gerbitsidlar aralashtirilib, qo'llanilganda bir nechta guruhlariga mansub bo'lgan begona o'tlarning bir vaqtning o'zida bartaraf etilishini aniqlaganlar.

Tahlil etilgan ilmiy manbalarning mazmunidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, begona o'tlarning madaniy ekinlarga nisbatan hayotchanligi yuqori bo'lib, mintaqalar bo'yicha ekinzorlarda 200 dan 400 tagacha turi uchraydi, ularga qarshi kurashishda agrotexnologik va kimyoviy jarayonlarni uyg'unlashtirib hamda gerbitsidlar, pestitsidlar, fungitsidlar, retardantlar, mineral o'g'itlar va boshqa kimyoviy vositalarini aralashtirilib qo'llanilishining samaradorligi yuqori bo'lib, ushbu tadbir har bir mintaqada tuproq-iqlim sharoitini hisobga olingani holda, ekinlarning turlari va navlari bo'yicha ishlab chiqilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Babushkin L.N. O'rta Osiyo paxta mintaqasining agroklimatik rayonlashtirilishi. .: «Gidrometeoizdat», 1968.-157-162 b.
2. Годунова К.Нормы высева зерновых культур.Москва,1964-523 с
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.М.:«Колос»,1985.-317 с.
4. Данилов Р. Борьба с засоренностью полей. Саранск, 1970.-86 с.
5. Генусов А. З., Горбунов Б.В., Кимберг Н. Ф. Почвенно-климатические районирование Узбекистана в сельскохозяйственных целях. Ташкент. Изд. УзАСХИ, 1960.
6. Кукушкин В.К. Фонин А.Д., Рачинский В.В. Транспорт и метаболизм хлорсульфурина в растениях при его поступления через листья. Известия Тимирязевской с/х академия. 1996.-7 с.
7. Алиев А.М. Комплексная борьба с сорняками. //Ж: «Земледелие», №5, 1985.-24-26 с.
8. Алиев А.М. Комплексная борьба с сорняками. //Ж: «Земледелие», №5, 1985.-24-26 с.
9. Алланазарова У. Фенологические наблюдения над сорняками в посевах пшеницы на богаре. Узбекский биологический журнал. 1967.-37-41 с.